MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



"BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI"

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-TEXNIK ANJUMAN TO‘PLAMI





28-29-MART
2025-YIL

doi

Google Scholar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

BIOTEXNOLOGIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

RESPUBLIKA ILMIY ANJUMANINING TEZISLAR TO‘PLAMI

28-29 mart 2025 y

***

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ДЖИЗАКСКИЙ ФИЛИАЛ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА

СБОРНИК ТЕЗИСОВ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ НАУЧНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

«ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ БИОТЕХНОЛОГИЙ»

28-29 марта 2025 г.

JIZZAX – 2025

foydalanilgan holda o‘simliklarda kasalliklarga bo‘lgan chidamlilik darajasini oshirish muhim axamiyatga ega [7].

Xulosa qilib aytganda urug‘liklar bir maydonga surunkali ekilmasdan balki tez-tez yoki xar ikki yilda bir marta urug‘larning navlarini almashtirish orqali o‘simlikning sog‘lom o‘simliklar sonini ortirishga olib keladi. O‘z vaqtida xosilni yig‘ib terib olish orqali kasallikni ma’lum darajada kamayishiga olib keladi. Shularni hisobga olgan xolda poliz ekinlarini yetishtirishda barcha tadbirlarni birgalikda olib borilgandagina yuqori natijalarga erishishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ҳасанов Б. А., Очилов Р.О., Гулмуродов Р.А. Сабзавот, картошка ҳамда полиз экинларининг касалликлари ва уларга қарши кураш. Тошкент 2009
2. Шералиев А.Ш., Рахимов У.Х. Қишлоқ хўжалик фитопатологияси. Тошкент 2014.
3. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигида ишлатиш учун рухсат этилган пестицидлар ва агрохимикатлар рўйхати. Тошкент 2013.
4. Зуев В.И., Акромов В.И., У.И. Атаходжаев А.А., Қодирхўжаев О., Асатов Ҳимояланган полиз экинлари “Иқтисод-молия” 2014. – б. 124-238.
5. Зуев В.И., Абдуллаев А.Г. Сабзавот экинлари ва уларни етиштириш Тошкент 2011.
6. Хўжаев Ш.Т. Ўсимликларни уйғунлашган ҳимоя қилиш тизими ва унинг таркибидаги биологик усулнинг тузилиши ва моҳияти. – Тошкент: ―Minis design group МЧЖ, 2018. – 100 б.
7. Хўжаев Ш.Т. Қишлоқ хўжалигида пестицидларни ишлатиш ҳамда тадқиқот ўтказиш усул ва шартлари. – Тошкент: ―Zilol buloq нашриёти, 2020. – 150 б.

FUSARIUM LINK TURKUMIGA MANSUB ZAMBURUG‘LARNING BIOLOGIYASI

Jovliyev Sh.B., Hayitov I.Y.
Qarshi davlat universiteti.
E-mail: shaxriyorjovliyev05@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda Fusarium turkumiga mansub zamburug‘larning biologik xususiyatlari o‘rganilgan. Ushbu turkum vakillari tuproq, o‘simlik qoldiqlari va o‘simlik to‘qimalarida uchraydi. Tadqiqotda *Fusarium* turkumiga mansub *Fusarium graminearum, F. oxysporum, F. solani, F. verticillioides, F. proliferatum, F. poae, F. equiseti* kabi keng tarqalgan turlarining morfologik va fiziologik xususiyatlari, rivojlanish sharoitlari hamda ularning o‘simliklar bilan o‘zaro ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlari: Fitopatogen, saprofit, *Fusarium graminearum, F. oxysporum, F. solani, F. verticillioides, F. proliferatum, F. poae, F. equiseti.*

Kirish. *Fusarium* turkumi zamburug‘lari keng tarqalgan fitopatogen va saprofit mikroorganizmlar qatoriga kiradi. Ular asosan tuproqda, o‘simlik to‘qimalarida va organik qoldiqlarda uchraydi. Fuzarioz kasalliklarini keltirib chiqaruvchi ushbu zamburug‘lar qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun katta xavf tug‘diradi (Sheraliev,1997) [2].

Fusarium turkumi Ascomycota bo‘limiga mansub mikroskopik zamburug‘lar bo‘lib, mitseliysi septatli, oq, qizg‘ish, konidiylar har xil makro va mikrokonidiyalari bo‘ladi. Ularning makrokonidiylar 3-5 to‘siqli, yarim oysimon, o‘roqsimon yoki qilichsimon, mikrokonidiyalari esa mayda, 1-2 to‘siqli, tuxumsimon yoki ellipssimon shakllarda bo‘ladi (Sheraliev, 2001) [5].

Fusarium turkum turlarining ba’zi turlar xlamidospora hosil qilib, noqulay sharoitlarga chidamli bo‘ladi. Ularning optimal o‘sish harorati 25–30°C, hatto 40°C oralig‘ida ham o‘sishi aniqlangan. pH 4,0–8,0 oralig‘ida o‘sadi, neytral muhitda yaxshi rivojlanadi. *Fusarium* turkum turlari kislorodli muhitda o‘sishga moslashgan.

Fusarium turkumiga mansub keng tarqalgan turlar *Fusarium graminearum, F. oxysporum, F. solani, F. verticillioides, F. proliferatum, F. poae, F. equiseti* kabi zamburug‘lardir .

Fusarium graminearum Schwabe. – donli ekinlar uchun xavfli fitopatogen zamburug‘ bo‘lib, makrokonidiylar 3 va 5 to‘siqli, ellipssimon shakllda bo‘ladi. Donli ekinlarning boshog‘ini chirishi kasalligiga sabab bo‘ladi.

Fusarium oxysporum Schlecht. – o‘simliklarning to‘qimalarini zararlaydi. Keng tarqalgan fitopatogen zamburug‘ bo‘lib, vilt kasalligi sababchisi bo‘lib, paxta, pomidor, banan, qovun, bodring va boshqa ekinlarda kasallik qo‘zg‘atadi. Dala xo‘jaligida yirik hosil yo‘qotishlariga sabab bo‘ladi (Sheraliev, 1977, 1982, 1983) [1], [3],[4].

Fusarium solani (Mart.) Sacc. – bu zamburug‘ saprofit va patogen zamburug‘ bo‘lib, tuproqda keng tarqalgan. Odam va hayvonlarda mikoz kasalliklarini keltirib chiqaradi. Ko‘pincha pomidor va bug‘doyda chirish kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Fusarium verticillioides (Sacc.) Nirenberg. – zamburug‘i juxori donlarini chirish kasalligini qo‘zg‘atadi. Mikrokonidiylari tuxumsimon, silindrsimon shaklda bo‘ladi.

Fusarium proliferatum (Matsush.) Nirenberg. – Bu turdagi zamburug‘ piyoz, banan, gullar va juxorida parazitlik qiladi va chirish kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Fusarium poae (Peck) Wollenw. – Ko‘pincha g‘alla ekinlarining ya’ni bug‘doy va arpada boshoq chirish kasalligini qo‘zg‘atadi. Mikrokonidiylar va makrokonidiylar bilan ko‘payadi (Xaytbaeva, 2017) [6]. (Sherimbetov, 2023) [7].

Fusarium equiseti (Corda) Sacc. – Saprofit va fitopatogen sifatida tuproqda va o‘simliklarda uchraydi. Donli va poliz ekinlarni zararlaydi. Qizil yoki qo‘ng‘ir pigment hosil qiladi.

Xulosa: *Fusarium* turkumining eng keng tarqalgan turlari asosan qishloq xo‘jaligi ekinlari va oziq-ovqat mahsulotlari uchun xavfli hisoblanadi. *Fusarium* zamburug‘larini nazorat qilish uchun qishloq xo‘jaligi choralari, agrotexnik tadbirlar, fungitsidlar va biologik nazorat mexanizmlarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шералиев А. Виды грибов рода Fusarium Lk. et Fr. на шелковице в Узбекистане // Вопросы ботанических исследований в Узбекистане. Ташкент: Фан. 1977. С.31-32.
2. Шералиев А. Фузариум замбуруғлари ва уларнинг тарқалиши // Ўзбекистон экологик хабарномаси. 1997. №4. 33-34 б.
3. Шералиев А. Роль сорняков в накоплении и сохранении инфекции фузариозного вилта шелковицы в питомниках Узбекистана // Сорные растения Узбекистана и меры борьбы с ними (Науч. тр. Таш СХИ). 1982. Вып 101. С.107-111.
4. Шералиев А. Фузариоз шелковицы и видовой состав возбудителей болезни в условиях южных областей Узбекистана //Микробиология и научно-технический прогресс. Киев: Наукова думка. 1983. С.171-172.
5. Шералиев А. Род Fusarium Lk. et Fr. в Узбекистане (систематика, распространение, биология). – Ташкент, 2001, 51 с.
6. Хайтбаева Нодира Сейтжоновна Қорақалпоғистон республикасининг шўрланган тупроқларида буғдойнинг фузариоз касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари. Авто.реф. б.ф.ф.д., Тошкент – 2017. – Б. 25.
7. Шеримбетов Анвар Гулмирзаевич Ўзбекистонда юмшоқ буғдойни зарарловчи *Fusarium* туркуми турларининг морфологияси ва молекуляр биологияси. Авто.реф. б.ф.д., Тошкент – 2023.- Б. 27